

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**

доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Karimov Bobir</b> “MAHALLABAY” ISHLASH TIZIMI NEGIZIDA INSON SALOHİYATINI RO‘YOBGA CHIQRISH KOMPETENSIYALARI.....	5
<b>2. Kulbekova Nasiba</b> INSON SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA TA‘LIM TIZIMINING O‘RNI.....	12
<b>3. Инаков Комил, Абдугафурова Чарос</b> МОЛОДЕЖЬ КАК РЕСУРС РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА.....	19
<b>4. Узакова Зарина</b> ПОТРЕБНОСТИ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ (ЧС): РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА.....	27
<b>5. Dulanbayeva Oygul</b> MUALLIFLIK STRATEGIYASI ZAMONAVIY MUTOLAA DIDINI SHAKILLANTIRISH MEKANIZMI SIFATIDA.....	34
<b>6. Hojiyev Zavqiddin</b> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	40
<b>7. To‘raev Odiljon</b> AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASH ORQALI IJTIMOIIY XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	50
<b>8. To‘raxo‘jaeva Ra‘no</b> DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI XODIMLARINING MAXSUS KOMPETENSIYALARI.....	59
<b>9. Abdikadirova Nigora</b> INSON SALOHİYATI: NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	66
<b>10. Tadjikhojaev Botir</b> DAVLAT BOSHQARUVIDA XARIZMATIK SHAXSLAR FAOLIYATINING SOSIOLOGIK TAHLILI.....	71
<b>11. Xolmurodov G‘ulom</b> O‘ZBEKISTONDA MAHALLA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	78
<b>12. Axmedova Shaxnozaxon</b> OILA-NIKOH MUNOSABATLARINI O‘RGANISHDAGI SOTSIOLOGIK NAZARIY YONDASHUVLAR.....	91

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Dulanbayeva Oygul,**


O‘zbekiston Milliy universiteti

Sotsiologiya kafedrasida katta o‘qituvchisi

sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

e-mail: oyguldulanboyeva@mail.ru

### MUALLIFLIK STRATEGIYASI ZAMONAVIY MUTOLAA DIDINI SHAKILLANTIRISH MEXANIZMI SIFATIDA

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15132686>

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “Mualliflik strategiyasi” kitob mutolaa madaniyati, didini shakillantiruvchi mexanizmi sifatida namoyon bo‘lishi ochib berilgan. Shu o‘rinda “Mualliflik strategiyasi” tushunchasining mazmun mohiyati, uning kelib chiqishiga oid turli yondashuvlar keltirib o‘tilgan. Ayniqsa, ushbu tushunchaning dastlab narratologik tadqiqodlar doirasidan qanday qilib adabiyot sotsiologiyasi predmetiga aylanganligi tarixiga ham, alohida to‘xtalib o‘tilgan. Bundan tashqari, zamonaviy jamiyat sharoitida ijodkor muvaffaqiyati, kitobxonlar auditoriyasi, mutolaa didi kabi hodisalarning o‘zgarib borishiga e‘tibor qaratiladi. Qolaversa, mutolaa madaniyati shakillanishining yangi istiqbollari ilmiy- nazariy xulosalarga tayangan holda keltirib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** mualliflik, strategiyasi, sotsial rollar, statuslar, sotsial qatlam, jamiyat, mutolaa didi, ijtimoiy guruhlar, mualliflik pozitsiyasi.

**Дуланбаева Айгуль,**

Старший преподаватель кафедры Социологии

Национального университета Узбекистана,

доктор философии по социологическим наукам, (PhD)

e-mail: oyguldulanboyeva@mail.ru

### АВТОРСКАЯ СТРАТЕГИЯ КАК МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОГО ЧИТАТЕЛЬСКОГО ВКУСА

#### АННОТАЦИЯ

В статье раскрывается, как «стратегия авторства» проявляется как механизм, формирующий культуру и «вкус» чтения книг. Здесь излагается суть понятия «Стратегия авторства» и различные подходы к его возникновению. В частности, обсуждается история того, как эта концепция изначально вышла из сферы нарратологических исследований и стала предметом литературной социологии. Кроме того, уделяется внимание изменению характера таких явлений, как творческий успех, читательская аудитория и читательские вкусы в современном обществе. Кроме того, на основе научно-теоретических выводов представлены новые перспективы формирования культуры чтения.

**Ключевые слова:** авторство, стратегия, социальные роли, статусы, социальный класс, общество, читательские вкусы, социальные группы, авторская позиция.

**Dulanbaeva Oygul**,  
Senior Lecturer, Department of Sociology,  
National University of Uzbekistan  
Doctor of Philosophy in Sociology (PhD)  
e-mail: oyguldulanboyeva@mail.ru

## AUTHOR'S STRATEGY AS A MECHANISM FOR FORMING MODERN READING TASTE

### ABSTRACT

The article reveals how the “authorship strategy” manifests itself as a mechanism that shapes the culture and taste of reading books. It presents the essence of the concept of “Authorship Strategy” and various approaches to its emergence. In particular, the history of how this concept initially came out of the sphere of narratological studies and became the subject of literary sociology is discussed. In addition, attention is paid to the changing nature of such phenomena as creative success, readership and reading tastes in modern society. In addition, new prospects for the formation of a reading culture are presented based on scientific and theoretical conclusions.

**Keywords:** authorship, strategy, social roles, statuses, social class, society, reading tastes, social groups, author's position.

### KIRISH

Axborot texnologiyalari taraqqiy etgan zamonaviy jamiyatda ijodkordan, ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirishda novatorlik, bozor qonunlariga moslashuvchanlik, kitobxonlar auditoriyasini to‘g‘ri baholay olish kabi xususiyatlar talab etiladi. “Bugungi kun adabiy jarayonida ijodkorlarning sotsial qiyofasini yangicha tavsiflashda san’atshunos tadqiqotchilar “Mualliflik strategiyasi” atamasini qo‘llaydilar. “Mualliflik strategiyasi” ilmiy atama sifatida ilk bor narratologik va retseptiv tadqiqotlarda qo‘llanildi. 2000-2003-yillarda rus tadqiqotchilari V.Shmidt va V.Tyuplarning “bayon qilish diskursi” hamda “muallif tafakkuri xususiyatlari” kabi tadqiqotlarida mualliflik strategiyasi matnlarni o‘rganish metodologiyasi nuqtai nazaridan tadqiq etildi. Keyinchalik N.N.Akimova (2003), T.A.Alpatova (2005)larning ishlarida mualliflik strategiyasi:“mualliflik pozitsiyasi”, “muallif obrazi” kabi kategoriyalar bilan sinonim tarzda o‘rganildi.

### METODOLOGIYA

Mazkur maqolada tarixiylik, qiyosiy taxlil, analiz va sintez kabi umumilmiy va falsafiy metodlardan foydalanildi. Qolaversa, maqolaning nazariy metodologik asosini zamonaviy ijtimoiy gumanitar fanlarda ilgari surilgan g‘oyalar, tadqiqodchi olimlarning qarashlari tashkil etadi.

Mustaqillik davrida O‘zbekistonda kitob mutolaasining sotsiologik masalalari birinchi bo‘lib A.Umarovning ilmiy ishlarida maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganib chiqilgan [1]. Shuningdek, sotsiolog-olim A.Xolbekov o‘z ilmiy maqolasida sotsiologiyada adabiy usul yoki sotsiologik tahlil manbai sifatida badiiy asarda, ya’ni A.S.Pushkinning “Boris Godunov” dramasi misolida tahlil qilib bergan [2]. Sotsiolog A.Abdulazizov ham o‘z monografiyasida mustaqillik yillarida mamlakatimiz o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimidagi o‘quv yurtlari o‘smir yoshlari mutolaa madaniyatining falsafiy, psixologik, estetik va tarixiy jihatlarini sotsiologik tahlil etgan [3].

Bugungi kunda “mualliflik strategiyasi” tushunchasi modernistik va postmodernistik asarlarni tahlil qilishda keng qo‘llanilmoqda” [4]. Aynan muallifning kitobxonga yo‘nalganligi va kitobxonning muallifdan nimani kutishi mazkur yo‘nalishdagi asarlarda keng bayon etiladi.

“Bu ma’noda mualliflik strategiyasi ijodkor ongini, hatti-harakatini namoyon qilish shakli bo‘lib, u ochiq yoki yashirin tarzda boshqa tafakkur tarzi bilan to‘qnashganda yuzaga keladi” [5]. Muallif strategiyasining namoyon bo‘lish mezonlari ijodkorning o‘ziga, boshqalarga, olamga munosabati nuqtai nazaridan belgilanadi.

“Ijod jarayonida muallif strategiyasini o‘rganish uning axloqiy pozitsiyasini o‘zi yashab turgan zamon va makonga kommunikativ munosabatlar orqali aniqlash mumkin. Shuningdek, muallifning: “klassitsizm”, “romantizm”, “realizm”, “modernizm”, “postmodernizm” kabi estetik tizimlardagi o‘rnini ham ko‘rsatishga imkon beradi” [6].

## ASOSIY QISM

Muallif strategiyasi asosida doim tanlov bo‘ladi. Bu tanlov ijodkorni jamiyatdagi statusi nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Ijodkorni o‘rab turgan ijtimoiy-madaniy hayot, iqtisodiy omillar, uni muayyan dunyoqarashni talab etadigan auditoriya tanlashga yoki hech bir sohaga ixtisoslashmagan ommaviy pozitsiyani tanlashni taqozo etadi. Bu ma‘noda muallif strategiyasi zaruratining yana bir omillaridan biri bu ommaviy adabiyot doirasida o‘z auditoriyasiga ega bo‘lish istagidir.

“Muallif strategiyasi muayyan maqsadga erishish yo‘lida u yoki bu vositalarni ongli tarzda tanlashni nazarda tutadi” [7]. Muallif strategiyasining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri tanlanganligi tabiiyki, muvaffaqiyatga erishish bilan belgilanadi. Bu o‘rinda “ijodiy muvaffaqiyat” tushunchasini adabiyot misolida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq, zero, XX va XXI asrlarda aynan mazkur tushuncha san‘at, madaniyat doirasida deyarli mashhur bo‘lmagan sohalarning ommalashishiga sabab bo‘ldi.

Ijtimoiy hayotimizda muvaffaqiyat tushunchasi to XXI asrgacha ijod jarayonini tashqi, miqdoriy jihatdan aks etuvchi, baholash mezonini anglatuvchi sifat tariqasida qo‘llangan. Bundan qariyb yuz yil oldin jamoatchilik e‘tirofi qator tanlangan asarlari, gazeta va jurnallarda ko‘plab maqolalari, gonorarlari, dala-hovlilari, chet elga chiqishga imkoniyati bo‘lgan shoir yozuvchilarga qaratilgan edi. Aniqrog‘i, ularning muvaffaqiyatlari turli miqdoriy ko‘rsatgichlar bilan interpretatsiya, boshqacha qilib aytganda talqin qilinardi.

Biroq Sovet Ittifoqining tarqalishi oqibatida yuzaga kelgan erkin bozor munosabatlari badiiy asarlarning nashri hamda shoir, yozuvchilarning gonorallarini keskin qisqartirdi. Natijada halqaro mukofot, grant kabi yangicha ko‘rsatgichlar vujudga keldi. Ushbu jarayonlar ijodiy muvaffaqiyat xaqidagi uzoq yillar shakllangan ierarxik tasavurlarni yo‘qolib borishiga sabab bo‘ldi.

Bugun shoir yoki yozuvchilarni biror taniqli jurnalda asar chop etish muvaffaqiyat bilan ta‘minlamaydi. Chunki, adabiy jurnal, gazetalarning o‘zi legitimatsiya funksiyasini bajarmaydi. Ya‘ni jurnallar avvalgidek shoir, yozuvchilarni yaratmaydi. Sobiq Ittifoq davridagi adabiy tizim qaysidir ma‘noda legitimatsiya funksiyasidan holi zamonaviy andegraundning analogi sifatida baholanadi. Bu yerda har bir auditoriyani o‘zining kumirlari, o‘zining estetik bahosi, o‘zining modasi, o‘zining adabiy kurashlari mavjud, ular ham ijodkorni tanitishga xizmat qiladi, biroq shuhrat va muvaffaqiyatni mutlaqo boshqa omillar ta‘minlaydi.

1. Xos doiradagi muvaffaqiyat;
2. Horijiydagi muvaffaqiyat;

Ko‘p hollarda bu ikki vaziyat bir-birini taqozo qiladi. Unga ko‘ra, muallif tor doiradagi nashriyotlar, saytlar, mediya dasturlar bilan chegaralanishga majbur bo‘ladi” [8].

Ijodiy muvaffaqiyatni belgilovchi omillardan biri sifatida jamoatchilik e‘tirofini ham keltirish mumkin. G.Moskoga ko‘ra “jamoatchilik fikri, faqat bir qismigina suv yuzida turgan muz tog‘iga o‘xshaydi. U yuqori va quyi qismining o‘zaro mutanosibliigi tufayli muvozanatda turadi. Bu muz tog‘ining yuqori qismini tabiiyki, siyosiy, iqtisodiy, madaniy elitalar tashkil qiladi. Bu elita o‘z kuchidan boshqa narsaga tayanmaydi.

Jamoatchilik fikri ijodkorni e‘tirof etish orqali unga muvaffaqiyat keltiradi, ushbu e‘tirof prinsip jihatdan elitar e‘tirof sanaladi. Istisno tariqasida faqat omma didiga qaratilgan: shou-biznes, estrada, omma adabiyoti kabi ko‘rsatgichlarni ham keltirish mumkin. Masalan, detektiv janrda ijod qiluvchi mualliflarning asarlari ko‘plab sahifalarda chop etiladi, tabiiyki ularning qamrovi ommaga qaratilgan. Shu bois ularning gonorarlari ham yuqori sanaladi.

Lekin, shunga qaramay mazkur mualliflarning gonorallarini sobiq Ittifoq yozuvchilarining qalam haqqi bilan solishtirib bo‘lmaydi. Bu jarayondan shuni kuzatish mumkinki, faqat pulning o‘zi ijodiy muvaffaqiyatni belgilamaydi. Detektiv va ishqiy romanlarning mualliflari asarlari tez-tez chop etilishlariga qaramay, tanqidchi va professional yozuvchi, shoirlar doirasida e‘tirof etilmaydilar. Bu ma‘noda tijorat adabiyoti nufuzli, xoslar adabiyoti doirasida muvaffaqiyatga erisha olmaydi.

Adabiyotning ijtimoiy maqomi shu sohadagi qadriyatlar, pozitsiyalarni shuningdek, muallifning ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi. O‘z navbatida adabiyot ijtimoiy maqomining o‘zgarishi muallif strategiyasining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Postsovet mamlakatlaridagi adabiy makonning o‘zgarishiga turli qadryatli mo‘ljallarga ega kitobxonlar auditoriyasining yuzaga kelganligi sabab bo‘ldi. Qadryatli me‘yorlar nuqtai nazaridan,

ushbu auditoriya bir necha o'n yillar davomida gomogen xususiyatga ega bo'lib keldi. Adabiyot hatto san'at va madaniyat bilan aynanlashtirildi, shuningdek, senzurali cheklovlarni yumshatish, bekor qilish vositasi sifatida ham qaraldi. Badiiy asar simvolik kapitalga egalik qilish bilan birga, axloqiy, ma'naviy, estetik hamda sotsial me'yorlarning chegarasini kengaytiruvchi instrument sifatida ham baholandi.

Turli estetik va axloqiy qadriyatlarga ega kitobxonlarning vujudga kelishi, shuning bilan birga OAV hamda audio, video texnologiyalarining rivojlanishi adabiyotning ijtimoiy statusini o'zgartirib yubordi. Ushbu jarayonlarni Berg quyidagicha izohlaydi: "Sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi postsovet mamlakatlaridagi ijtimoiy-madaniy sohani keskin o'zgarib ketishiga sabab bo'ldi. Ushbu o'zgarishlar inersiyasi bugungi kungacha o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Aksariyat hollarda mazkur jarayonlar oqibatida yuz bergan qadriyatlar almashinuvini salbiy baholash tendensiyasi kuzatiladi.

Postsovet mamlakatlaridan farqli o'laroq, Lotin Amerikasi mamlakatlari madaniy hayotida ushbu jarayonlar asta-sekinlik bilan amalga oshirilganligi, ayniqsa ularning adabiyotida aks etadi" [9].

Berg ta'biri bilan aytganda, "muallif matn yaratarkan, unga ichki energiyasini jamlaydi, o'z navbatida kitobxon, ushbu energiyani qabul qiladi. Boshqacha qilib aytganda, kitobxon badiiy asar o'qish natijasida o'zining ma'naviy, yoki ijtimoiy statusini oshirishga, hech bo'lmaganda ruhiy barqarorligini mustahkamlashga imkon yaratadi [10].

Biroq, kitobxonlar auditoriyasining o'zi matning taqdiriga sezilarli ta'sir ko'rsata oladi, ya'ni u asarni baholash mezoniga bog'liqlik darajasini kuchaytirish yoki pasaytirishga qodir. Kitobxon sotsial makondagi o'rni hamda ijtimoiy guruhlardagi roliga muvofiq matnni sotib olishi, uni o'qishi, yoki o'qimasligi mumkin, shuningdek u, ushbu matnni boshqa potensial kitobxonlarga ulashishi ham ehtimoldan holi bo'lmaydi. Agar kitobxon yozuvchi bo'lsa, asarga nisbatan munosabatni shakllantirish imkoni yanada ortadi, agar o'quvchi noshir bo'lsa, matnning chop etish adadi oshadi, oqibatda, muallifning gonarari ko'tariladi.

Agar kitobxon olim, yoki jurnalist bo'lsa, asar haqida tanqidiy hamda ilmiy maqolalar yoziladi. Bu ma'noda muallifning o'zi ham, referend guruh ichida bo'lishi mumkin. Muallifning strategiyasi asarni yozish bilan chegaralanmaydi. U bir vaqtning o'zida, kitobxonlar orasida asarning interpretatsiya jarayoniga, uni baholanishiga, amalga oshishiga ozmi-ko'pmi hissa qo'shadi. Uning hatti-harakati referend guruhning boshqa a'zolaridan ko'ra, aniq maqsadga qaratilgan bo'ladi.

Bugungi kunda o'z asarlarini kitobxonlarga ilgarilari kuzatilmagan yangilik sifatida taqdim qila olish ijodiy muvaffaqiyatning asosiy belgilaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu ma'noda har qanday mualliflik strategiyasi ijodiy muvaffaqiyatning doirasida quyidagi ko'rsatgichlarning mavjudligi nazarda tutiladi:

1. O'z-o'zidan qoniqish yoki ruhiy-tarixiy burchni his qilish: unga ko'ra, muallif muayyan tarixiy voqeelikda ruhiy muvozanat izlashga urinadi, natijada u o'ziga xos tarzda madaniy kapital yaratadi [11];

2. Moddiy ko'rinishdagi iqtisodiy kapital;

3. Shon-shuhrat, e'tirof etilish: sotsial kapital.

Bu kabi mezonlarga ajratish shartli sanaladi. Zero, e'tirof, shuhrat ko'rinishidagi sotsial kapital nafaqat ijtimoiy statusni belgilaydi, balki mazkur kapitalni iqtisodiy kapitalga aylantirishga ham imkon yaratadi. O'z navbatida madaniy kapital yaratish esa iqtisodiy va sotsial kapitalni taqozo etadi.

Bu ma'noda adabiyot axborot texnologiyalarining ta'siriga tusharkan, mualliflik strategiyasi ijodkor uchun o'z ijodini amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi. Zotan, muallif strategiyasining o'zi ham axborot texnologiyalarining bir qismiga aynanib qoldi.

Masalan, shoir yozuvchining muayyan asari nashr bo'lishga ulgurmay, ijtimoiy tarmoqlarda uzatiladi. So'ngra talabga ko'ra, qayta tarqatilib, elektron kutubxonalarga joylashtiriladi va audio kitob shaklida taqdim qilinadi. Natijada yangi asarlarni ijtimoiy mediya orqali tarqatuvchi tarmoqlar yaratiladi.

Madaniy tizimdagi yangi statusiga ko'ra, adabiyot quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

1. Raqobatbardoshlik. Adabiyot madaniy sohaning boshqaturlari bilan raqobatga kirishadi. Mutolaa bo'sh vaqtni o'tkazish nuqtai nazaridan kino, roliklar, musiqa kabi san'at turlari bilan taqqoslanadi. Bu o'rinda Ye.V.Kazlov "Ekranli mediyaning tez sura'tlar bilan taraqqiy etishi, madaniy sanoat doirasida mutolaa statusini pasayib borishiga sabab bo'ldi" [12].

2. Adabiyotni tijoratlashtirish. Tabiiyki, bu omil ko'p talqinlilik xususiyatiga ega. Masalan, Sidorovaga ko'ra, - "tijoratlashtirish adabiyotni faqat kitobxonning talabiga moslashtirishga sabab bo'ladi" [13].

Ommaviy kommunikatsiya tizimidagi zamonaviy adabiy jarayonlarda badiiy matn haqidagi tasavvurlar ham o'zgarib bormoqda. Sotsiologik adabiyotlarda matn, yozma, audio, vizual, axborot qayd etilgan tizim sifatida qabul qilinadi. Badiiy asarlar tahlili nuqtai nazaridan matnlar birlamchi va ikkilamchi turlarga ajratiladi. Bu ma'noda badiiy asarlarning o'zi birlamchi matn, u haqidagi tanqidiy, reklama, targ'ibot materiallari ikkilamchi matn sanaladi.

Rossiyada 2008-yil "Kitob sanoati" nashriyoti tomonidan "kitoblarni tarqatish usullari" mavzusida o'tkazilgan tadqiqotlarda bugungi kunda noshirlar quyidagi omillarga e'tibor qaratmoqdalar: mualliflarning turli mavzularda markaziy televidiniya va radio kannalardagi ishtiroki; ijtimoiy tarmoqlardagi fotosessiyalari; ijodkorlarning hayoti bilan bog'liq turli voqealarni ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilishi; ijodkorlarning turli ijodiy kechalar, konferensiyalarda ishtirok etishi; internet tarmoqlaridagi reklamalar, banerlar, intervyularda tez-tez namoyon bo'lishi.

Ijod namunalarini targ'ib qilishda internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy mediya vositalaridan foydalanmaslik ko'zlangan natijaga olib kelmasligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari ijod namunalarini targ'ib qilishda samarali bo'lgan quyidagi omillarni ham keltirib o'tish mumkin:

muallif ijodiy namunalarini vizuallashtirish, (klip yoki roliklar misolida);

shoirning imidjini, o'ziga xos tashqi qiyofasini yaratish;

turli fotosessiyalarni kun davomida ijtimoiy tarmoqlarga qo'yib borish (ushbu omil ijodkor hayotini kitobxonga yaqinlashtiradi);

bastakorlar bilan hamkorlik qilish, she'rlarni musiqa ostida e'lon qilish;

kitob muqovasining dizayniga e'tibor qaratish, bu o'rinda kitob muqovasi shoirning imidjiga mos kelishi kerak.

### **XULOSA**

Yuqoridagi ommilarni umumlashtirib shuni xulosa qilish mumkinki, nafaqat shoirning ijodi, balki uning internet tarmoqlaridagi har bir hatti-harakati o'ziga xos matnga aylanishi talab etiladi. Uning ijodi, tashqi ko'rinishi, she'ri uchun tanlagan musiqalari, roliklari, kliplari turli ma'nolarda talqin etilishga, muhokama qilinishga sabab bo'lishi kerak. Ushbu tarzdagi muallif strategiyasi ijodkorni, uning sotsial qiyofasini multimediyaga proyektiga aylantiradi.

Zamonaviy adabiy jarayonning ushbu strukturasi o'ziga xos sotsiomadaniy qonuniyatga ko'ra amalga oshadi. "Mazkur qonuniyat hamda ommaviy mediya tizimining taraqqiy etishi, a'naviy va industrial jamiyatda mavjud bo'lgan adabiyot ko'rinishlarini keskin transformatsiya bo'lishini, adabiyotni musiqa, kino kabi boshqa san'at turlari bilan hamkorlik qilishini, uni vizuallashtirishini talab qiladi" [14].

### **Adabiyotlar/ Литература/ References:**

1. Умаров А.А. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. Социология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2005. – 274 б.

2. Холбеков А. Литературный метод в социологии или художественное произведение как источник социологического анализа (на примере драмы А.С.Пушкина "Борис Годунов") //Журнал социальных исследований. – 2022. – №. SI-1.

3. Абдулазизов А. Мутолаа маданиятини шакллантиришнинг социологик таҳлили//Монография (ўрта махсус, касб-хунаар ўқув юртлари мисолида). – Тошкент: "Наврўз" нашриёти, 2016. – 176 б.

4. <https://www.gramota.net/materials/2/2015/2-1/1.html>

5. <https://elibrary.ru/item.asp?id=22838011>
6. <https://www.gramota.net/materials/2/2015/2-1/1.html>
7. <https://elibrary.ru/item.asp?id=22838011>
8. Берг М. Литературократия. Проблема присвоения и перераспределения власти в литературе / М.Берг. – М.: Новое литературное обозрение, 2000. – 60с.
9. Берг М. Литературократия. Проблема присвоения и перераспределения власти в литературе / М. Берг. – М.: Новое литературное обозрение, 2000. – 53с.
10. Берг М. Литературократия. Проблема присвоения и перераспределения власти в литературе / М.Берг. – М.: Новое литературное обозрение, 2000. – 57с.
11. <https://elibrary.ru/item.asp?id=22838011>
12. Козлов С. Социология литературного успеха (от редактора). № 25. – М.: Новое литературное обозрение, 1997.
13. Сидорова А. Коммуникативные стратегии и культурные практики в поле литературы/ А.Г.Сидорова. – Барнаул, 2009. – 14с.
14. <https://elibrary.ru/item.asp?id=22838011>

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000